HURMATLI FUQAROLAR!

Karantin davrida osoyishtalikni ta’minlash maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi oziq-ovqat va birlamchi iste’mol mahsulotlari narxlarini qat’iy nazoratga oldi.

Ayrim insofsiz tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan narxlarning asossiz oshirilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun tuman hokimligi va tuman davlat soliq inspeksiyasida, viloyat soliq boshqarmasi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Markaziy appartida narxlarning o‘zgarishi ustidan nazorat qilish bo‘yicha maxsus ishchi guruhlari tashkil etildi.

Aniqlangan narxlarning asossiz oshirilishi holatlari haqida zudlik bilan Davlat soliq qo‘mitasi raisiga axborot beriladi. Ularning har biri bo‘yicha profilaktik tadbirlar o‘tkaziladi.

Agarda siz oziq-ovqat va birlamchi iste’mol mahsulotlari narxlarining asossiz oshirilishiga duch kelsangiz DSQning (71) 244-98-98 “ishonch telefoni” yoki qisqa 1198 raqamli Sall-markazga murojaat qiling.

2020-03-16 13:08:54